

**FARG'ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.04/30.09.2020.Tib.122.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI

QO'ZIYEV OTABEK JO'RAQULOVICH

**O'ZBEK POPULYATSIYASI SHAXSLARI DERMATOGLIFIKASINING
SUD-TIBBIY JIHATLARI**

14.00.24 – Sud tibbiyoti

**TIBBIYOT FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

FARG'ONA – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Oglavlaniye avtoreferata doktorskoy (DSc) dissertatsii

Content of the abstract of doctoral (DSc) dissertation

Qo‘ziyev Otabek Jo‘raqulovich

O‘zbek populyatsiyasi shaxslari

dermatoglifikasining sud-tibbiy

jihatlar.....

3

Кузиев Отабек Журакулович

Судебно-медицинские аспекты

дерматоглифики у лиц узбекской

популяции.....

27

Kuziev Otabek Jurakulovich

Forensic aspects of dermatoglyphics

in individuals of the Uzbek population

.....

51

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Spisok o‘publikovannix rabot

List of published works.....

55

**FARG'ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.04/30.09.2020.Tib.122.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH
TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI**

QO'ZIYEV OTABEK JO'RAQULOVICH

**O'ZBEK POPULYATSIYASI SHAXSLARI DERMATOGLIFIKASINING
SUD-TIBBIY JIHALARI**

14.00.24 – Sud tibbiyoti

**TIBBIYOT FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

FARG'ONA – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.DSc/Tib574 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent pediatriya tibbiyot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tma.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Iskandarov Alisher Iskandarovich
tibbiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Eshbayev Erkin Abduhalimovich
tibbiyot fanlari doktori, dotsent

Jumanov Ziyodulla Eshmamatovich
tibbiyot fanlari doktori, dotsent

Yuldashev Baxrom Sobirjanovich
tibbiyot fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

**Tojikiston espublikasi diplomdan keyingi tibbiy
– ta'lim instituti**

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti huzuridagi Ilmiy daraja beruvchi PhD 04/30.09.2020.Tib.122.01 raqamli ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik ilmiy kengashning 2025 yil «03» 05 soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 150100, Farg'ona shahri. Yangi Turon ko'chasi 2-a uy. Tel: (+99895) 400-01-14, faks (99873) 245-59-07 ye-mail: info@fjsti.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (279 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg'ona shahri. Yangi Turon ko'chasi 2a-uy. Tel: (+99895) 400-01-14, /faks(99873) 245-59-07 ye-mail: info@fjsti.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «25» 04 da tarqatildi.

(2025 yil «25» 04 dagi 17 raqamli reyestr bayonnomasi).



A.A.Sidikov
ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash asosidagi
bir martalik ilmiy kengash raisi, tibbiyot fanlari
doktori, professor

S.A.Shokirov
ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash asosidagi
bir martalik ilmiy kengash kotibi, tibbiyot
fanlari nomzodi, dotsent

Sh.I.Ro'ziev
ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
bir martalik ilmiy seminar raisi, tibbiyot fanlari
doktori, professor

KIRISH (tibbiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra «...shaxsi noma'lum murdalarni qayd etilishi butun dunyo ekspertlarini ish ko'lamini ortishiga va ochilmagan jinoyatlarning ko'payishiga sabab bo'lib kelmoqda...»¹, birgina 2021-yil ma'lumotlariga tayanadigan bo'lsak, Rossiya davlati misolida 14688 nafar noma'lum shaxslarning murdasi qayd etilishi kabi raqamlar, zo'raki o'lim tasdiqlangan holatlarning 8-10% ini tashkil etishidan darak beradi. Zararlantiruvchi omillar ta'sirida vafot etganlar tashqi ko'rinishining o'zgarishi va murdada kuzatiladigan holatlarning rivojlanishi, bedarak yo'qolganlar haqidagi ma'lumotlarning yetarli emasligi ularning shaxsini aniqlashda bir qancha qiyinchiliklar tug'diribgina qolmasdan aksariyat hollarda buning mutlaqo imkoni bo'lmaydi. Mazkur muammoga yangi, individuallashtirilgan belgi-alomatlar tizimini izlab topish, zamonaviy qiyosiy taqqoslash tizimlarini ishlab chiqish, shaxsning identifikatsiya qilish jarayonlarini tashkiliy va texnologik jihatdan takomillashtirish bilan masalaga yechim topish mumkin. Bunday jarayonlarda surishtiruv-tergov xodimlarining sud-tibbiy ekspertizasi oldiga qo'yadigan ilk savoli, shaxs identifikatsiyasini aniqlash hisoblanadi. Ushbu jabhada "...qiyosiy taqqoslashga biror vositaga asoslangan holda, ya'ni vafot etgan insonni muayyan qarindoshlik guruhiga kiritish orqali erishish mumkin..."². Yuqoridagilarni inobatga olgan holda shaxsi noma'lum murdalarni identifikatsiya qilish va ochilmagan jinoyatlarning ochilishiga asosli ilmiy xulosalar bilan xissa qo'shish maqsadida baholash fundamental tibbiyot sohasining oldida turgan dolzarb muammolaridan biridir.

Jahonda ko'plab irsiy patologiyalarni o'rganishda, shu bilan bir qatorda sud tibbiyoti amaliyotida dermatogliklik baholash bo'yicha qator maqsadli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bunday holatlarda o'lim sababi hamda uning sodir bo'lish muddati, jarohatlarning mavjudligi qolaversa uning yuzaga kelish mexanizmiga sud tibbiy jihatdan baho berish kabi savollar shaxsning identifikatsiyasidan keyingina aniq bir mazmun hamda ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Yurtimizda tibbiyotni rivojlantirish, tibbiyot tizimini jahon andozalari talablariga moslashtirish, jumladan, turli tashxislash jarayoniga raqamli texnologiyalarni keng qo'llashga doir muayyan chora tadbirlar amalga oshirilishiga qaratilgan qator ijobiy o'zgarishlar olib borilmoqda. Bu borada 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining yettita ustuvor yo'nalishiga muvofiq aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish darajasini yangi bosqichga ko'tarishda «...birlamchi tibbiy-sanitariya xizmatida aholiga malakali xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash...»³ kabi vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalardan

¹ Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlari, 2021 yil.

² V.N. Chulaxov, N.V. Maksimov "Shaxsi noma'lum murdalarni yaqin qarindoshlarining daktillokopik kartasi orqali shaxsini aniqlash" *Oeconomia et Jus.* 2022. № 2, <http://oecomia-et-jus.ru/single/2022/2>.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni

kelib chiqqan holda, jumladan, dermatoglikfik ko'rsatkichlarni olish usullarini takomillashtirish yuzasidan tadqiqotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", «O'zbekiston Respublikasida sud-ekspertiza tizimini takomillashtirish choralari to'g'risida» 2021-yil 5-iyuldagi PF-6256-son⁴, 2020 yil 12-noyabrdagi PF-6110-son "Birlamchi sog'liqni saqlash muassasalari faoliyatiga prinsipial yangi mexanizmlarni joriy etish va sog'liqni saqlash tizimini yanada oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2020 yil 12 noyabrdagi PQ-4891-son "Tibbiy profilaktika bo'yicha ishlar samaradorligini yanada oshirish orqali aholi salomatligini ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021 yil 25 maydagi PQ-5124-son "Sog'liqni saqlashning kompleks rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida", 2021 yil 28-iyuldagi PQ-5199-son "Sog'liqni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining V. "Tibbiyot va farmakologiya" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi.⁵

Turli-tuman geografik hududda yashovchi elatlarning barmoq dermatoglikfikasining sud-tibbiy jihatlarini ilmiy asoslash va ularning qiyosiy taqqoslash majmuini ishlab chiqish borasida o'tkazilgan qator tadqiqotlar samarasi o'laroq quyidagi natijalar qayd etilgan: dermatoglikfik alomatlarining o'zgaruvchanligi va ularning ahamiyati va o'rni isbotlangan Vrije Universiteit Brussel (Belgiya); teridagi tojsimon qirralarining yoshga bog'liq polimorfizmining o'rni isbotlangan University of Milano-Bicocca (Italiya) Dermatoglikfik alomatlarining bo'y o'lchamiga bog'liq polimorfizmining o'rni va baholash Shiraz University (Eron); individual o'zgaruvchanlikning o'rni isbotlangan Mayo Clinic (AQSH); papillyar naqshlarning o'zaro bog'liqligining ahamiyati isbotlangan Université de Rennes (Fransiya); Universidad de La Frontera (Chili); barmoq izlari andozalarini olishni zamonaviy zararsiz usullarining ahamiyati baholangan Shahid Beheshti University of Medical Sciences (Eron); tirik insonlarda qo'l barmoqlari andozalari daktilloskopik talqin qilinishining ahamiyati borasidagi qator izlanishlar nashr qilingan bo'lib bular: Universitat Ulm am Bezirkskrankenhaus Günzburg, Hannover Medical School (Germaniya) irsiy kasalliklarning uchrashi va klinik shakllarining nomoyon bo'lish darajasini baholashda dermatoglikfik usullarida yondoshuvi ishlab

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni «O'zbekiston Respublikasida sud-ekspertiza tizimini takomillashtirish choralari to'g'risida» PF-6256-son 2021-yil 5-iyul.

⁵ Dissertatsiyaning mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar ta'rifi quyidagi saytlar orqali o'rganildi: www.washington.edu, www.ku.edu, www.atlantaoralpathology.com, www.univr.it, www.unipv.it, www.uksh.de, www.keio.ac.jp, www.ico.gencat.cat, www.uoa.gr, www.ufsc.br, www.yonsei.ac.kr, www.sydney.edu.au, www.jazanu.edu.sa, www.rims.edu.in, www.rnioi.ru, www.cancercenter.uz, www.toshvilonko.uz

chiqilgan (Perinatal Institute (Buyuk Britaniya); (University of Catania, Italiya); sud tibbiyoti amaliyotida insonlardagi daktiloskopik tadqiqotlar talqinini ilmiy asoslashga va qiyosiy ekspertiza jihatlarini ishlab chiqishga qaratilgan qator izlanishlar olib borilgan (Toshkent pediatriya tibbiyot instituti, (O'zbekiston).

Jahon olimlarining ko'plab hududiy jihatdan mos dermatoglik belgilarning sud-tibbiy qirralarini ilmiy asoslash va ularni qiyoslashga doir bir qancha ustuvor y

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Adabiyotlarda mavjud bo'lgan ko'plab ma'lumotlarga qaramay, dermatoglikaning sud tibbiy jihatlarini to'liq ochib berilmagan. Bularning barchasi birgalikda o'rganilayotgan muammoning dolzarbligini belgilaydi. Qo'l barmoqlaridagi papilyar chiziqlarning irsiy asosga ega ekanligi, mazkur chiziqlarning irqqa, shaxsning jinsiga, hayot davomida rivojlangan qo'llarning fiziologik assimetriyasiga, tug'ma nuqsonlarga bog'liqligi bilan bir qatorda insonlarning hayotiy turmush tarzi davomida sezilarli o'zgarishlari aniqlangan. Qo'l barmoqlaridagi rel'yeflar yoshga bog'liq holda o'zgarib bormaydi, dermatoglik chiziqlarga atrof muhitning noqulay sharoitlari ta'sir etmaydi va katta individual aniqlik jihatlarini bilan farqlanadi (Solnichenko V.G., Bogdanov N.N., 2002; Sidorenko A.G., 2006). Ko'pgina shaxslarning ommaviy nobud bo'lishida va yuz qiyofasini tanib bo'lmaydigan holatlarga kelishida, qurolli nizolarda kaft va barmoq papilyar chiziqlarining inson tanasini shikastlovchi turli omillar ta'siriga barqarorligi bilan taqqoslashda ko'proq ma'lumot beradigan ob'yektlardan biri bo'lib hisoblanadi. Shu sababli tekshirishning oddiy va samarali usullaridan foydalanishga bo'lgan qiziqish, mazkur qonuniyatlarga asosan ortmodda (Zvyagin V.N.,2002). Hozirgi kunda inson tashqi qiyofasi majmuini o'rganishda eng qulay usullardan biri bo'lmish dermatoglikadan keng foydalanilmoqda.

O'zbekistonda tibbiyot sohasida professor Buzrukov B.T.(2000) rahbarligida Morfan kasalligini erta tashhishlashda dermatoglik alomatlarini o'rganish bo'yicha, professor A.I. Iskandarov va Sh.I. Ro'ziyevlar (2016) tomonidan to'satdan o'lgan shaxslarni yashirin qandli diabet ikkinchi turini aniqlashda, Shamsiyev A.Y.(2018) va hammualliflar tomonidan suidsidga moyillikka xos dermatoglik tadqiqotlar olib borilgan ammo, shunga qaramasdan shaxs identifikatsiyasiga oid biror bir tadqiqot q'tkazilmagan.

Muhokama qilinayotgan jabhada bu juda muhim ahamiyat kasb etadi. Asosiy identifikatsion usullar bilan birgalikda dermatoglikaning hal qiluvchi xususiyatlari, qo'shimcha belgilar tizimiga jalb qilinganda yanada samarali va ahamiyatli bo'lishi mumkin. O'tkazilgan tadqiqotlar, mazkur usulini tibbiy-kriminalistik tekshiruvlar asosida shaxsni identifikatsiya qilishda qo'llanilishi, shaxsni aniqlashning boshqa muqobil usullari bilan birgalikda bir-birini samarali to'ldiruvchi usullar tizimi ekanligini ko'rsatdi.

Mazkur muammoni o'rganishga bag'ishlangan qator ilmiy-tadqiqot ishlarining o'tkazilishi hali muammoning yechimi mukammal emasligidan dalolat beradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent pediatriya tibbiyot institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq № 572.524.12:340.6-575.1 “Sud tibbiyoti dermatoglifikasi” (2021-2023 yy.) mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: o'zbek populyatsiyasiga mansub shaxslarda qo'l barmoqlari dermatoglifikasining fenotipologiyasi asosida konstitutsional informativ belgilarini aniqlash hamda sud-tibbiy dermatoglifik usullarni takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

murdalarda hamda tirik shaxslarda barmoq andozalarini olish usulini takomillashtirish;

ma'lumot olishda har tomonlama kompleks baholashga imkon beradigan, qo'l barmoqlari papilyar rel'yefini tekshirish usulini mukammallashtirish;

dermatoglifik alomatlarining guruhiy o'zgaruvchanligini o'rganish, belgilangan qonunlarga asoslangan holda jinsiy mansublikni aniqlash;

identifikatsiya qilinuvchi shaxslarning yoshga bog'liq dermatoglifik alomatlar qonuniyatlarini aniqlash;

identifikatsiya qilinuvchi shaxslarning bo'y o'lchamiga bog'liq dermatoglifik jihatlarni aniqlash;

Tadqiqotning ob'yekti sifatida o'zbek populyatsiyasiga mansub ko'ngilli 17 yoshdan 65 yoshgacha bo'lgan 1000 nafar erkak hamda ayollarda konstitutsional irq, jinsi, yoshi va bo'y o'lchami bilan bir qatorda qo'l barmoqlarining andozalari hamda Respublika Sud-tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi Buxoro viloyati filiali morfologiya bo'limida mahalliy tub aholiga mansub o'lim toifasi bo'yicha zo'raki va nozo'raki bo'lgan 160 nafar shaxslar murdasini barmoq andozalarini dermatoglifik ko'rsatkichlarini tahliliga asoslangan.

Tadqiqot predmeti sifatida 1000 nafar tirik shaxslarning hamda 160 nafar murdalar barmoq andozalari daktokartasi dermatoglifik tahlili hamda tekshiriluvchilarning antropometrik o'lchamlari ko'rsatkichlari tahlillarining natijalari olingan.

Tadqiqotning usullari. Andozalarni olishda bo'yoqli hamda bo'yoqsiz daktiloskopik usullardan, tashqi omillar ta'sirida o'zgarishga uchragan murdalarda barmoq papilyar chiziqlarini fiksatsiya qilish usuli, daktiloskopik andozalarni o'rganishda dermatoglifik usuldan, inson bo'yi va vaznini o'lchashda antropometrik usullardan, shu bilan bir qatorda, erishilgan natijalarni tahlil qilishda statistik tekshiruv usullaridan samarali foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor sud-tibbiyoti amaliyotida o'zbek populyatsiyasiga mansub shaxslarning qo'l barmoqlari dermatoglifikasining shaxs identifikatsiyasi bilan bog'liq jihatlarni tizimlashtirish asoslangan;

tirik shaxslarda barmoq andozalarini olishni bo‘yoqli usuli maxsus qurilma orqali takomillashtirilgan, murdalarda barmoq andozalarini bo‘yoqsiz usulda olinishi odatiy skaner yordamida takomillashtirilgan;

o‘zbek populyatsiyasiga mansub shaxslarning qo‘l barmoq distal falangalaridagi dermatoglikofik alomatlarni: naqshlarning shakli, turi va xilining tug‘ma o‘zgarmaydigan, o‘zgaruvchan hamda ortirilgan belgilarini inobatga olgan holda dermatoglikofik tasnif takomillashtirilgan;

qo‘l barmoq distal falangalarini papilyar chiziqlaridagi tojsimon qirralarning daktiloskopik sanog‘ini avtomatlashtirish orqali 97% aniqlikda gender xususiyatlarini identifikatsiyalash isbotlangan;

barmoqlarning distal falangalari dermatoglikofik alomatlari asosida ishlab chiqilgan mezonlar, sud tibbiyoti soha vakillarini shaxsni – aniqlash bo‘yicha o‘tkaziladigan ekspertizalarida qo‘llash asoslangan.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati: sud-tibbiyoti amaliyotiga tadbiiq etilgan o‘zbek populyatsiyasiga mansub shaxslarning barmoqlar distal falangasi dermatoglikofik jihatlarni e‘tirof etuvchi naqsh shakli, turi va xili, tug‘ma o‘zgarmaydigan hamda ortirilgan alomatlarni tavsiflovchi tasnif sud tibbiy ekspertiza xulosalarining holisligi va sifatini oshirishga qaratilgan bo‘lib, mos ravishda iqtisodiy samaradorlikka erishishga sabab bo‘lgan;

qo‘l barmoq distal falangalari andozalarini olishga qaratilgan usulni takomillashtirish orqali, tasvir sifatini oshirishga hamda sud tibbiyoti ekspertiza harajatlarini kamaytirishga;

“Delta” dasturiy ta‘minoti, sud tibbiy ekspertiza xulosalarining xolisligi va sifatini oshirishga qaratilgan bo‘lib, daktiloskopik tekshiruvlarda iqtisodiy samaradorlikka erishilgan;

sud-tibbiyoti xodimlari uchun ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalar shaxsni identifikatsiyasi bilan bog‘liq ekspertizalarini o‘tkazishda gender xususiyatlarini aniqlab berish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda zamonaviy, bir-birini to‘ldiruvchi sud-tibbiy dermatoglikofik va statistik usullardan foydalanish, shuningdek, yetarli miqdordagi tirik shaxs va murdalarni barmoq andozalarini tekshirish, daktiloskopik usullarni takomillashtirish, dermatoglikofik alomatlarni antropometrik ko‘rsatkichlar bilan solishtirish va ularni sud-tibbiy tashhisiiy mezonlarini ishlab chiqish, statistik tahlil usullarining asosli to‘plami, shuningdek ularni to‘g‘ri qo‘llash, xulosa, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlaganligi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ishlab chiqiladigan usullar insonlarning ommaviy halok bo‘lishi bilan bog‘liq halokatlarda, burdalangan murdalarni biometrik saralashda, jinoyat joyida qoldirgan qo‘l izlari bo‘yicha jinoyatchini tasvirlashda, o‘zi haqida ongli ravishda yoki patologik sabablarga ko‘ra ma‘lumotlar bermaydigan yoki yolg‘on ma‘lumotlar beradigan insonlar shaxsini aniqlashda, kichik yoshdagi bolalarni va xotirasini yo‘qotib qo‘ygan insonlarni shaxsini aniqlashda; kriminalistika sohasining gomeoskopiya usulida hodisa sodir bo‘lgan joyda qolgan qo‘l izlariga qarab, jinoyatchini tasvirlash; voqea-hodisa yuz

bergan joyda qolgan barmoq izlariga qarab, jinoyatda qatnashgan shaxslar sonini aniqlash hamda turli joylarda yuz bergan hodisalardan olingan barmoq izlarining yagona shaxsga mansub bo'lishi ehtimolini aniqlashga aloqador masalalarni hal qilishda qo'llanilishi mumkin.

Dermatoglifika bo'yicha olingan ma'lumotlar oliy o'quv yurtlari talabalari, magistrleri hamda sud tibbiyoti ekspertlarini kasbga tayyorlash va malakasini oshirish maqsadida o'quv dasturlariga kiritilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbek populyatsiyasiga mansub shaxslarda qo'l barmoqlari dermatoglifikasining fenotipologiyasi asosida konstitutsional informativ belgilarini aniqlash hamda sud-tibbiy dermatoglifik usullarni takomillashtirish mavzusi borasida erishilgan ilmiy natijalar sud tibbiyoti ekspertizasi amaliyotiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligining 25 sentyabr, 2024 yildagi 6-sonli ilmiy-tadqiqot ishlari va natijalarini amaliyotga tatbig'i bo'yicha xulosasi bilan tasdiqlangan), (Respublika sud tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazining uslubiy tavsiyanomani amaliyotga joriy qilish to'g'risidagi 27 iyul 2022 yildagi 18/AF/2022 buyrug'i bilan tasdiqlangan).

Birinchi ilmiy yangilik: ilk bor sud-tibbiyoti amaliyotida o'zbek populyatsiyasiga mansub shaxslarning qo'l barmoqlari dermatoglifikasining shaxs identifikatsiyasi bilan bog'liq jihatlarini tizimlashtirish asoslangan. Tadqiqot natijalari sud tibbiyoti amaliyotiga, (O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 25 sentabr, 2024 yildagi 6-sonli ilmiy-tadqiqot ishlari va natijalarini amaliyotga tatbig'i bo'yicha xulosasi) jumladan, Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi Buxoro filiali (25 noyabr 2022-yildagi, 23-sonli buyruq), Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi Namangan filiali (05 dekabr 2022-yildagi, 34-sonli buyruq), Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi Farg'ona filiali (08 avgust 2022-yildagi, 26-sonli buyruq) hamda Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi Sirdaryo filiallarida (11 noyabr 2022-yildagi, 24-sonli buyruq) amaliyotga joriy etilgan. Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi: ommaviy baxtsiz halokatlarda, shaxsi noma'lum burdalangan murdalarni biometrik saralashda hamda shaxs identifikatsiyasida ekspertiza sifati va aniqligini oshiradi. Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi: sud tibbiyoti amaliyotida shaxs identifikatsiyasi bilan bog'liq ekspertizalarini o'tkazish jarayonida sarf qilinadigan xom-ashyoni hamda sud-tibbiy ekspert vaqti va mablag'ini tejatlashga olib keladi. Xulosa: olingan natijalar barmoq dermatoglifik andozalarini optik raqamli texnologiyalar yordamida olinishi shaxsi noma'lum murdalar identifikatsiyasida ekspert xulosalarining sifatini oshirishga yordam bergan;

Ikkinchi ilmiy yangilik: tirik shaxslarda barmoq andozalarini olishni bo'yoqli usuli maxsus qurilma orqali takomillashtirilgan, murdalarda barmoq andozalarini bo'yoqsiz usulda olinishi odatiy skaner yordamida takomillashtirilganligi bo'yicha "Sud tibbiyotida daktiloskopik identifikatsiya samaradorligini oshirish usuli" nomli

uslubiy tavsiyanoma ishlab chiqilgan va sud tibbiyoti amaliyotiga tadbiiq etilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 25 sentabr, 2024 yildagi 6-sonli ilmiy-tadqiqot ishlari va natijalarini amaliyotga tatbig‘i bo‘yicha xulosasi),(Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi Buxoro filialining 25 noyabr 2022-yildagi, 23-sonli buyrug‘i, Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi Namangan filialining 05 dekabr 2022-yildagi, 34-sonli buyrug‘i). Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi: quyidagilardan iborat: ishlab chiqilgan tirik shaxslarda qo‘l-barmoq andozalarini bo‘yoqli usulda olishga moslashtirilgan qurilma yordamida olingan andozalar tasviri an‘anaviy usulda olingan tasvirlardan naqsh maydonining kengligi, chiziq detallarining aniqligi bilan ustun turishi isbotlangan., bu esa o‘z navbatida shaxsi noma‘lum murdalarni dermatoglifik identifikatsiyasida ekspert xulosalarining aniqligini va sifatini oshirishga yordam beradi. Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi: ishlab chiqilgan usullar yordamida barmoq naqshlarini to‘laqonli tasvirini olishga erishilgan bo‘lib, o‘z navbatida tasvirlarni miqdoriy natijalari to‘g‘risida qisqa muddatda ma‘lumot olish imkonini yartgan. Mazkur jarayonda ananaviy hamda ishlab chiqilgan usullar o‘rtasidagi Keff tafovuti 276,2 tashkil etib, bir xil natijaga erishish uchun kam xarajatni talab etilishi isbotlagan. Xulosa: sud tibbiyoti amaliyotida takomillashtirilgan usullar mazkur soha ekspertizalari tashxisoti hamda xulosalari sifatini oshirgan.

Uchinchi ilmiy yangilik: o‘zbek populyatsiyasiga mansub shaxslarning qo‘l barmoq distal falangalarinidagi dermatoglifik alomatlarni naqshlarning shakli, turi va xilining tug‘ma o‘zgarmaydigan hamd ortirilgan belgilarini inobatga olgan holda sud–tibbiy dermatoglifik tasnif takomillashtirilgan va sud tibbiyoti amaliyotiga (O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 25 sentabr, 2024 yildagi 6-sonli ilmiy-tadqiqot ishlari va natijalarini amaliyotga tatbig‘i bo‘yicha xulosasi), Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi Farg‘ona filiali (08 avgust 2022-yildagi, 26-sonli buyruq) hamda Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi Sirdaryo filiallarida (11 noyabr 2022-yildagi, 24-sonli buyruq) tadbiiq etilgan. Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi: o‘zbek populyatsiyasi shaxslari dermatoglifik jihatlarini tavsiflovchi mukammallashtirilga tasnif, ekspertiza xulosalari sifati va xolisligini ta‘minlashga yordam bergan. Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi: mazkur dasturdan foydalanish orqali shaxs identifikatsiyasi bilan bog‘liq o‘tkaziladigan ekspertizalarda, ekspert vaqti hamda xom-ashyo sarfini kamaytirish orqali iqtisodiy samaradorlikka erishilgan. Xulosa: o‘zbek populyatsiyasi shaxslari dermatoglifik jihatlarini tavsiflovchi mukammallashtirilga tasnif, ekspertiza xulosalari sifati va xolisligini ta‘minlashga yordam bergan.

To‘rtinchi ilmiy yangilik: qo‘l barmoq distal falangalarini papilyar chiziqlaridagi tojsimon qirralarning daktiloskopik sanog‘ini avtomatlashtirish

borasida “Kompyuter texnologiyasidan foydalangan holda barmoq izi tasvirini optik shakllantirish jarayonida barmoq va kaft dermatoglifikasini aniqligini oshirish usuli” uslubiy tavsiyalar sud tibbiy ekspertiza amaliyotiga (O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 25 sentabr, 2024 yildagi 6-sonli ilmiy-tadqiqot ishlari va natijalarini amaliyotga tatbig‘i bo‘yicha xulosasi), Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi Farg‘ona filiali (08 avgust 2022-yildagi, 26-sonli buyruq) hamda Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi Sirdaryo filiallarida (11 noyabr 2022-yildagi, 24-sonli buyruq) tadbiriq etilgan. Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi: ishlab chiqilgan dermatogliflik alomatlar hisobini olishni avtomatlashtirilgan usulini qo‘llash orqali 97% aniqlik bilan o‘zbek populyatsiyasiga mansub shaxsi noma‘lum insonlarning qo‘l barmoq distal falangalarini papilyar chiziqlarining sanog‘ini gender xususiyatlarini inobatga olgan holda aniqlashga erishilgan. Barmoq andozalari tasvirlarni sifatli olish hamda tashxisiy ma‘lumotlarni aniq talqin qilish natijalar orqali ekspert xulosalari sifatini oshirishga erishilgan. Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi: iqtisodiy samaradorlikni aniqlash maqsadida tashxisiy testni sarf qilingan samaradorlikni hisoblash usulidan foydalanilgan (Jefferson T., 2003): $K_{eff} = \frac{Sost}{Eff}$, Cost – sarf yig‘indisi, Eff – samaradorlik (tashxisiy aniqlik, %). “Delta” dasturini qo‘llagan holda- $K_{eff} = 479,5$ sarf-xarajat yig‘indisi 46800 so‘m va samaradorlik 97,6%. Ushbu holatda ananaviy usul hamda ishlab chiqilgan usul orasidagi K_{eff} tafovuti 358,9 tashkil etgan. Ishlab chiqilgan usul bilan bir xil natijaga erishish sarf xarajatni kamayishiga olib kelgan. Xulosa: tadqiqot natijalari ekspertiza xulosalari sifati va xolisligini ta‘minlashga yordam bergan.

Beshinchi ilmiy yangilik: barmoqlarning distal falangalari dematogliflik alomatlari asosida ishlab chiqilgan mezonlar, sud tibbiyoti soha vakillarini shaxsni – aniqlash bo‘yicha o‘tkaziladigan ekspertizalarida qo‘llash asoslangan. O‘zbek populyatsiyasi shaxslari dermatogliflik belgilari asosida noma‘lum shaxsni bo‘y o‘lchami, jinsi va yoshga doir parametrlarni o‘z ichiga olgan mezonlar ishlab chiqilib (O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 25 sentabr, 2024 yildagi 6-sonli ilmiy-tadqiqot ishlari va natijalarini amaliyotga tatbig‘i bo‘yicha xulosasi), Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi Buxoro filiali (25 noyabr 2022-yildagi, 23-sonli buyruq), Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi Namangan filiali (05 dekabr 2022-yildagi, 34-sonli buyruq), Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi Farg‘ona filiali (08 avgust 2022-yildagi, 26-sonli buyruq) hamda Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi Sirdaryo filiallarida (11 noyabr 2022-yildagi, 24-sonli buyruq) amaliyotga joriy etilgan. Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi: qo‘l barmoqlari distal falangalari papilyar chiziqlarining identifikatsion majmui ommaviy baxtiz halokatlarda murdalarni biometrik saralashda, burdalangan murdalarni shaxsini aniqlashda sud-tibbiy, kriminalistik va dermatogliflik tekshiruvlarda shaxs identifikatsiyasiga bog‘liq masalalarini echimida foydalaniladi. Ilmiy yangilikning

iqtisodiy samaradorligi: Shaxs identifikativasi bilan bo‘liq ekspertizalarda, tekshiruv vaqti hamda sarf-xarajatni kamaytirish orqali iqtisodiy samaradorlikka erishilgan bo‘lib, bu o‘z navbatida ekspert xulosalari sifati va xolisligini ta‘minlashga yordam bergan. Ishlab chiqilgan mezonlar orqali sarflangan sarf-xarajat yig‘indisi 46800 so‘m va samaradorlik 97,6%.tashkil qildi. Xulosa: tadqiqot natijalari shaxs identifikativasi bilan bo‘liq ekspertizalarda, tekshiruv vaqti hamda sarf-xarajatni kamaytirish orqali ekspert xulosalari sifati va xolisligini ta‘minlashga yordam bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobativasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan, 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 33 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarni asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta maqola, jumladan, 10 tasi respublika va 3 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan. 3 ta EHM dastur guvohnomasi hamda 1 ta foydali model uchun patent guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning xajmi 127 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida bajarilgan tadqiqotlar dolzarbligi va zarurati, tadqiqot maqsadi, vazifalari, ob‘yekti va predmeti tavsiflangan, shu tadqiqotlarning O‘zbekiston Respublika fan va texnologiyalari ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va uning amaliy natijalari o‘z ifodasini topgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ko‘rsatilgan, olib borilgan tadqiqotlar natijalarining amaliyotga joriy qilinishi hamda mazkur ishni mohiyatini yoritib berishga bag‘ishlangan chop qilingan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy tizimlari bo‘yicha batafsil ma‘lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning **“Tibbiy antropologiya va sud tibbiyotida dermatoglikfik tadqiqotlar”** deb nomlangan mazkur bobida, sud-tibbiyoti ekspertizasida daktiloskopik tekshiruvlarning tutgan o‘rni hamda ularning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritilgan bo‘lib, bunda xorijiy va mahalliy ilmiy adabiyotlarning qiyosiy tahlili keltirilgan. Dermatoglikfik alomatlarining o‘zgaruvchanligi, teridagi tojsimon qirralarining yoshga bog‘liq polimorfizmi, dermatoglikfik alomatlarining bo‘y o‘lchamiga bog‘liq polimorfizmi, individual o‘zgaruvchanlik va papilyar naqshlarning o‘zaro bog‘liqligi, ularning sud-tibbiy ekspertisasi jarayonidagi o‘rni haqidagi ma‘lumotlarning yetarli emasligi, ushbu usulni qo‘llashda turlicha fikrlarning mavjudligini inobatga olgan holda mazkur muammoning ilmiy jihatdan hal etilishining mualliflik yondoshuvi ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyaning **“O‘zbek populyatsiyasi shaxslari dermatoglikfikasining sud-tibbiy jihatlariga asoslangan tadqiqot material va usullari”** deb nomlangan

ikkinchi bobida Tadqiqotimizning asosiy materiali sifatida standart “Daktiloskopik kartalar”– tekshiriluvchilarning shaxsiy ma’lumotlari, qo’l barmoq yostiqchalari izlari tasviri haqidagi ma’lumotlarni o’zida saqlagan 1160 ta maxsus qayta ishlab chiqilgan kartalar taxlil qilingan. Ushbu 1160 nafar o’zbek populyatsiyasiga mansub insonlardan tadqiqot uchun yaroqli bo’lgan qo’llarning barcha barmoqlari distal falangalarining (to’liq dermatogliflar) izlari, ya’ni 1000 nafar tirik ko’ngilli shaxslardan (10000 ta barmoqlar andozasi) va 160 ta murdalardan (1600 ta barmoqlar andozasi) olindi. Tekshirilgan (sinovdan o’tgan) izlarning umumiy soni 11600 tani tashkil qildi.

Tadqiqotda ishtirok etgan tekshiriluvchilar 17 yoshdan 65 yosh oralig’ini tashkil etdi (o’rtacha yosh $41,5 \pm 0,5$). Tekshiriluvchilarning aksar qismi 21-35 yoshga to’g’ri keldi. Jinsiy taqsimotda erkaklar– 55,2% (640 shaxs), ayollar – 44,8% (520 shaxs) tashkil qilgan.

Antropologik o’lchamlar sud tibbiyotida umumqabul qilingan usullar orqali olib borilgan.

Andozalarni bo’yoqsiz usulda olishda biz ixchamlashtirilgan uzatgichsiz **iScan** skanneri 500dpi o’lchamda bmp formatidan foydalanilgan.

Daktiloskopik tekshiruvlar barmoqlarning distal falangalari tasvirlarini tahlili asosida olib borilgan.

Ma’lumotlarni statistik tahlil qilish dasturiy paketi(Statistica 6.0)dan foydalanilgan.

Dissertatsiyaning **“Qo’l barmoq andozalarini olishni zamonaviy talqini”** deb nomlanuvchi uchinchi bob daktiloskopik tekshiruvning sifatini oshirishga qaratilgan yangicha andozalarni olish va tahliliga qaratilgan tadqiqotlarning bayoniga bag’ishlangan. Dermatoglifik tadqiqotlarda barmoq andozalarini olishda teri papilyar chiziqlarining sifatli tasvirga olinishi muhim hisoblanadi. Hozirga qadar qo’llanilib kelayotgan ananaviy tipografik bo’yoq yordamida andozalarni olish usulida yuqori sifatli qora tipografik bo’yoqdan foydalanib kelingan. Barmoq izini olish uchun stol 1 m 10 sm balandlikda (o’rtacha bo’yli odamning tirsagi ostida) barmoq izi aksessuarlarini saqlash uchun tortmasi bilan qilingan. 50-60 sm o’lchamdagi stolning yuqori qopqog’i qopqoq tekisligiga to’g’ri burchak ostida qirralari kesilgan holatda bo’ladi. Bosma siyoh plastinka (shisha) ustidagi g’altak yordamida tekis qatlamda bo’yaladi (1-rasmga qarang). Xuddi shu rolik bilan (qo’shimcha bo’yoq qo’llanilmagan holda) ikkinchi plastinkaga (shisha) yupqa bo’yoq qatlami chiqariladi, uning ustiga barmoq izi olingan odamning barmoqlari bosilgan holda aylanma harakatga keltiriladi.



1-rasm. G'altak yordamida chig'irlash usuli, barmoq izlarini olishda an'anaviy tipografik bo'yoq qo'llanilgan.

An'anaviy bo'yash orqali andozalarni olish jarayonida tekshiriluvchilarning keskin va noaniq harakatlari tufayli olingan izlar yaroqsiz holga keladi (2-rasmga qarang). Ayniqsa jarayonning so'ngida bo'yaluvchi yuzaga barmoq distal yostiqchasining kuchli bosilishi, aylantirilayotgan tarafga tasvirning surkalishi (ayniqsa harakat so'ngida), barmoq yostiqchasini notekis chig'irlanishi (markaziy maydon, distal maydon, bazis maydon, o'ng va chap maydon), papillyar chiziqlarning bujmayishi oqibatida yuzaga kelgan tasvirlar, kirlangan va noaniq andozalar tekshiriluvchi daktiloskopik kartasining yaroqsiz holga kelishiga sabab bo'ladi. Bunday hollarda jarayon qayta o'tkaziladi.



2-rasm. An'anaviy bo'yoqli usulda dermatografik tadqiqotga yaroqsiz bo'lgan barmoq andozasini tasviri

Qolaversa tadqiqotdan so'ng tipografik bo'yoqni qiyin o'chishi va

bo'yoqni erituvchi kimyoviy moddalarning (benzin, turli kimyoviy erituvchilar) allergik jarayonlarni yuzaga keltirishi kabi salbiy oqibatlarga sabab bo'ldi.

Yuzaga kelgan kamchiliklarni bartaraf qilish maqsadida barmoq andozalarini olishga mo'ljallangan maxsus qurilma ishlab chiqib uning samaradorligini aniqlashga muvaffaq bo'lindi. Taklif qilingan usulda bo'yoq sifatida "shtempel mastikasi" dan foydalanildi.



Qurilma to'rt burchak shakldagi yog'och konstruksiyaga ega bo'lib, tasvirni olish jarayonida noqulaylik tug'dirmasligi uchun bir yon tomoni botiq ko'rinish olgan. (3-rasmga qarang)



3-rasm. Taklif etilgan barmoq andozalarini olish usuli(FAR 00802).

Qurilmaning ichki tomonida “shtempel mastikasi”ni oson shimib oluvchi elastik matodan yostiqlashtirilgan bo’lib, o’z navbatida barmoq distal falangalariga siyohning bir tekisda taqsimlanishini ta’minlab beradi.

Ishlab chiqilgan usulda barmoq andozalarni olish jarayoni quyidagicha kechadi: dastavval tekshiriluvchi qo’llari tozalanadi(oqava suvda sovun yordamida yoki namlangan sochiq yordamida), so’ngra tekshiriluvchi qo’llari tozalanib har ikkala qo’l bosh barmoqlari “shtempel mastikasi” shimdirilgan yostiqlashtirilgan qo’yiladi, so’ngra o’ng qo’l va chap qo’l bo’yalmagan to’rtala barmog’i bir vaqtning o’zida yostiqlashtirilgan o’rtacha kuch bilan bosiladi. Keyingi bosqichda bo’yalgan barmoq distal falangalari oldindan tayyorlangan maxsus daktilloskopik kartaga ketma ket tasvirlarni tushirish bilan yakunlanadi.

Barmoq izlarini olishning tavsiya etilgan usuli samaradorligini baholash jarayonida 98% hollarda silliq va aniq barmoq izlarini olish mumkinligini aniqlandi, qiyosiy guruhida esa ushbu ko’rsatkich 86% tashkil etdi. Qiyosiy an’anaviy tipografik bo’yoq bilan bo’yash usulida tekshirilgan guruhda papillyar chiziqlarni daktilloskopik tekshiruvga yaroqsiz bo’lganligi sababli takroriy barmoq izlarini olish 15% hollarda amalga oshirildi. Holbuki, asosiy guruhda ushbu ko’rsatkich faqat 2% tashkil qilib 7,5 baravar samaradorlikka erishishga muvaffaq bo’lindi.

Asosiy guruhda barmoq andozalarini olish uchun sarflangan vaqt o’rtacha $1,51 \pm 0,05$ daqiqani tashkil etdi, qiyosiy guruhida esa $5,9 \pm 0,12$ daqiqani tashkil etdi. Taklif qilingan usul an’anaviy tipografik bo’yoq bilan bo’yash usulidan 3,9 marta kam vaqt talab etishini isbotlagan ($p < 0,01$).

Shunday qilib tirik shaxslarni barmoq andozalarini olishda an’anaviy usuldan foydalanish bir qancha qiyinchiliklar tug’dirib, tasvirlarni to’liq va aniq olinish imkonini bermaydi. Ishlab chiqilgan barmoq andozalarini olishga mo’ljallangan maxsus qurilma orqali “shtempel mastikasi” yordamida andozalarini aniq-tiniq tasvirlarni olishga erishilgan.

Taklif etilgan usul yordamida murdalardan barmoq andozalarini olish imkoniyatini cheklaydi. Bunga sabab aksar hollarda murdadagi dastlabki o’zgarishlardan hisoblangan qo’l barmoqlaridagi qotish jarayoni ushbu amaliyotga to’sqinlik qiladi. Barmoqlarning to’liq ochilmasligi papillyar chiziq tasvirlarini to’laqonli olinishiga monelik qiladi.

Murdalardan barmoq andozalarini olishda bo’yoqsiz skanerlash usulidan foydalandik. Andozalarni bo’yoqsiz usulda olishda biz ixchamlashtirilgan uzatgichsiz iScan skaneridan foydalandik (4-rasmga qarang).



4-rasm. Murdalarda bo'yoqsiz skanerlash orqali barmoq andozalarini olish usuli.

Mazkur skaner ikkita AA-rusumli quvvatlagichda ishlaydi. Skanerlash uchun tozalangan qo'l barmoqlariga bir tekisda oq rangdagi talk kukuni surilgan. Bunda papilyar chiziqlarning botiq jo'yaklari orasiga oq kukun joylashgan. Qo'l barmoqlarida papilyar so'rg'ichlarning turtib chiqqan do'ngligi oq kukunni o'zida saqlamaydi. Barmoqlarni oq kukun surilgan yuzasidan 2-3mm masofada 500 dpi o'lchamdagi jpg formatiga sozlangan skaner yuqoridan pastka tomon yurgizilgan. Ushbu jarayonga 4-6 sekund vaqt sarflangan. Xuddi shu tartibda dastlab o'ng va chap qo'l birinchi barmoqlari, keyingi bosqichda to'rtala barmoqlar distal falangalari bir vaqting o'zida skanerlanib kompyuterga "Delta" dasturiy tizimiga joylangan va dermatoglifika tahlil qilingan (6-rasmga qarang).

Taklif etilgan mazkur usul tabiiy tashqi taassurotga uchragan murdalar terisini nozik izlarini olish imkoniyatini yaratdi. Mazkur usulni imkoniyatlarini an'anaviy usul bilan taqqoslaganimizda bo'yoqsiz skanerlash usuli samaradorligi 97,6% hollarda chiziqlar tasvirini aniq hamda to'liq olinishiga erishildi. Ushbu ko'rsatkich qiyosiy guruhda 86% tashkil etdi.


Qiyosiy guruhda takroriy barmoq izlari olish 15% hollarda amalga oshirildi. Taklif qilingan bo'yoqsiz usulda mazkur jarayon 2,4% ni tashkil etib, usulning qiyosiy guruhdan 6,3 marta ustunligi isbotlandi.

Barmoq izlarini bo'yoqsiz olish usuli o'zining tezkorligi, qulayligi, kamxarjligi bilan bir qatorda tirik shaxs va murdalarda dermatoglifika tekshiruvlarning asosi hisoblangan barmoq andozalarini olishda boshqa usullardan afzalligi isbotlandi.

Tibbiyotning dermatoglifika bilan bog'liq ko'pgina jabhalarida dermatoglifika tahlillar oddiy zarrabin yordamida o'tkazilgan. Tekshiruv obektini ko'pligi hamda tekshiriluvchi detallarning kichik o'lchami inson ko'zlarining toliqishiga olib keladi.

Bu esa o'z navbatida tekshirishlarni sifatini kamaytirib xatoliklarga sabab bo'ladi. Ushbu noqulayliklarni bartaraf qilish maqsadida zamonaviy raqamli texnologiyadan foydalangan holda yechim tomishga erishildi va shu asnosida "Delta" (DGU06764) dasturi ishlab chiqildi.

Skanerlangan barmoq andozalarini dasturga joylashdan oldin biz tekshiriluvchining pasport ma'lumotlarini hamda unga tegishli barcha ma'lumotlarni **ma'lumotlarni to'ldirish** qismiga kiritiladi. Barcha ma'lumotlarni to'g'riligiga ishonch hosil qilgandan keyin har bir barmoqqa tegishli bo'lgan oynachaga o'z nomiga va raqamiga mos barmoq izlarini joyashtiramiz. Barmoq izlari avval o'ng qo'l bosh barmog'idan birinchi tartib raqami ostida joylashtiriladi. Tegishli oynachalar mos ravishda barmoq izlari bilan to'ldirilgandan so'ng **saqlash** tugmasi orqali ma'lumotlar omborida tekshiriluvchiga tegishli barcha ma'lumotlar saqlanadi. Tekshiriluvchi ob'yekt ma'lumotlarini familiya, ismi yoki har bir tekshiriluvchiga avtomatik beriladigan ID raqam orqali **qidiruv** tugmasini bosish orqali erishiladi. Ma'lumotlar topilgach **tahlil** tugmasi yordamida olingan izlarni avtomatik tarzda dermatoglifika tahlili amalga oshiriladi (5-rasmga qarang).



5-rasm. Barmoq izlarini Delta dasturi yordamida avtomatik tahlili.

Barcha tegishli oynalar ma'lumotlar bilan to'ldirilgach ularni alohida alohida tahlil qilamiz va olingan natijalarni dastur xotirasiga saqlaymiz. Dasturiy ta'minot tekshiruv so'ngida har bir tekshiriluvchining barcha ma'lumotlarini statistik tahlil qilish uchun Excell formatda shakllantirib berish imkoniyatiga ega.

Delta dasturning imkoniyatlari: barmoqlar andozalari dermatoglifik tahlil natijalarini ma'lumotlar omborida saqlash, tekshiriluvchilar ro'yxatini shakllantirish, barmoqlarlar naqshlaridagi del'ta va markazlarni avtomatlashgan holda topish, markazdan del'tagacha bo'lgan chiziqlarni sanash, barmoqlar naqshlaridagi chiziqlar uzilishi, ikkilanishi, ulanishlar sonini hisoblash, tug'ma va orttirilgan dermatoglifik belgilarni aniqlash, muayan barmoqlar andozasini ma'lumotlar omboridagi mavjud andozalar bilan solishtirish va o'xshashlik jihatlarni taqqoslash, ma'lumotlar omboridagi ma'lumotlarni qulay va tez izlab topish va ularni guruhiy taqsimotini amalga oshirish, chiziqlar soni bo'yicha umumlashtiruvchi hisobotlar yaratish kabi vazifalarni osonlik bilan amalga oshiradi.

Delta dasturi - tibbiyotda kasalliklarni dermatoglifik tahlili asosida erta tashxislashda va sud tibbiyoti amaliyotida burdalangan shaxslar murdasi hamda shaxsi noma'lum murdalarni identifikatsiyasida yetakchi dastur sifatida qo'llanilishi mumkin.

Dissertatsiyaning **“Dermatoglifik alomatlar tasnifi”** deb nomlangan to'rtinchi bobida shaxsiy tadqiqotlar negizi hisoblangan qo'l barmoqlarining terisi grafik elementlari tahlil etilgan daktilloskopik tadqiqotlarda muhim sanalgan barmoq andozalarining tavsiflanishiga yangicha yondashilgan.

Quyidagi alomatlar majburiy tarzda belgilandi: naqsh turi (naqsh umumiy sxemasi va unda chiziqlar asosiy oqimining taqsimlanishining ko'rsatkichi sifatida), orientatsiya (naqsh maydonida chiziqlar oqimi siljish yo'nalishi va uning ichki simmetrikligi ko'rsatkichi), ul'nar va radial tojsimon qirralar soni (naqsh sig'imi va “o'lchami” ko'rsatkichlari) va baland-keng indeksi (naqsh maydoni shakli, uning proporsiyasi ko'rsatkichi). Mazkur alomatlar naqshlarni turli vaziyatlardan turib, tavsiflaydi va ular jamlanganida tadqiqotchi to'laqonli tasavvurga ega bo'ladi.

Ushbu alomatlarining yanada xolis, rasmiy bahoga ega bo'ladi, bu esa o'z navbatida ulardan matematik-statistik tahlil chog'ida diagnostik algoritmlarni tuzish imkoniyatini yaratadi.


Bundan tashqari, "delta – falangalararo burma" oralig'i (bevosita distal' falangada joylashib tasvirlanadigan, teri bilan qoplangan sohasi o'lchamining ko'rsatkichi), papillyar chiziqlar zichligi (naqsh o'lchami va tojsimon qirra shakllanishi jarayonlarining jadalligi), chiziqlar rudimentlari (embrional davrda tojsimon qirralar shakllanishining jadalligi va tugallanganligi ko'rsatkichi), displaziyalar (tojsimon qirralar shakllanish jarayonlarining me'yorga mos kelishi va balanslanganligi ko'rsatkichi), chandiqlar (postnatal' davrda jarohatlanish izlari yig'indisining ko'rsatkichi) va oq chiziqlar (terining turgori, qalinligi, distrofik jarayonlar bilan yuzaga keladigan teri holatining ko'rsatkichi) tahlil qilingan.

Tadqiqot natijasida naqshlar turlarini beshta guruh: ravoqlar, radial va ul'nar sirtmoqlar, kalavalar va murakkab naqshlarga bo'lish maqsadga muvofiq keladi.

A-ravoqsimon naqshlar – barmoq yostiqchasini ko'ndalang kesib o'tadigan va distal' tomonga bir oz bo'rtgan tojsimon qirrali chiziqlar tizimidan tashkil topadi. Chiziqlar oqimining shakliga bog'liq holda naqshning markaziy qismida ravoqlar parallel va qoyasimon yo'naladi. Ravoqlar uchradius (del'talar) ga ega bo'lmaydi, aksariyat esa tojsimon qirrali chiziqlar uzilishlar hosil qilmaydi va parallel qatorlar shaklida ravoqsimon chiziqlar biri boshqasiga qo'yilgandek joylashadi;

A1- qoyasimon ravoqda naqshning markaziy qismida qoyani eslatuvchi tasvirni hosil qiladigan qisqa papillyar chiziqlar kuzatiladi. (6-rasmga qarang).

A1- Qoyasimon naqshlarda papillyar chiziqlar barmoqning bir tomonidan ya'ni naqsh o'rtasidan yuqoriga keskin ko'tarilib so'ngra pastga tik tushganicha barmoqning boshqa tomoniga o'tadi ba'zi hollarda naqsh o'rtasidan keskin ko'tarilib uzilib qoladi, yoki boshqa papillyar chiziqlar bilan qo'shilib ketadi.




A-oddiy ravoqsimon naqsh A1- Qoyasimon naqsh A2-soxta sirtmoqli ravoq A3-soxta kalavasimon ravoq

6-rasm. ARCH-ravoqsimon naqshning ko'rinishlari

A2- soxta sirtmoqli ravoqsimon naqshlar; bu naqshlarda goh ikkita chiziq o'tkir burchak ostida kesishadi, goh yakka sirtmoq boshchasi tasvirning tashqi tomoniga o'tadigan chiziq bilan qo'shilib ketadi. A3- Soxta kalavasimon ravoq naqshlar; bu naqshlar markazida papillyar chiziqlar sirdan gajakka o'xshab

ketadigan tasvirni hosil qiladi, ammo bu tasvirda kalavasimon naqsh xususiyatiga ega belgilar bo'lmaydi.

L-sirtmoqsimon naqsh – naqshning yarim berkitilgan turi bo'lib, teri tojsimon qirralari barmoqning bir chekkasidan ikkinchi chekkasiga distal' tomonga egilib boradi va unga yetib bormasdan yana orqaga boshlangan joyiga qaytadi, natijada bitta del'ta va bitta markazga ega bo'ladi (7-rasm).



Lu- oddiy ul'nar
sirtmoq



Lu1-raketkasimon
ul'nar sirtmoq



Lr1-raketkasimon
radial sirtmoq

7-rasm. LOOP-sirtmoqsimon naqshning ko'rinishlari

L- sirtmoqsimon naqsh turi; ushbu naqshlar o'z o'qi atrofida sirtmoq kabi o'ralgan bo'lib sirtmoqni tashkil qiluvchi oyoqchalari qarshisida 1 ta del'ta (uchta oqimdagi chiziqlar yo'nalish nuqtasi) bo'lishi bilan farqlanadi. Lu- oddiy ulnar sirtmoq, Lr- oddiy radial sirtmoq, Lr1-raketkasimon radial sirtmoq, Lu1-raketkasimon ul'nar sirtmoq, L2-egilgan sirtmoq, L3-parallel sirtmoqlar.

Lu-oddiy ulnar sirtmoqli naqshlarning boshchasi yarim aylana shaklida bo'ladi, oyoqchalari esa nisbatan to'g'ri chiziq ko'rinishida bo'lib, sezilarli darajadagi masofada parallel ravishda o'tadi. Ushbu turda sirtmoq oyoqchasi jimjiloqqa yo'nalgan bo'lib radial tomonda 1 ta del'ta joylashadi.


Lr1-radial raketkasimon naqshlar ham xuddi ul'nar raketkasimon naqshlarga o'xshash bo'ladi. Farqli tomoni, del'taning o'ng tomonlarga joylashishidir.

